
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 3

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

БЕКПЎЛАТ УМУРҚУЛОВ
Бадиий нутқ – лингвистик тадқиқотлар манбаи 7

НЮБАР ХАКИМОВА
Традиционное врачевание или логманство,
концептуальные и практические направления 15

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Синтагматика согласных фонем в узбекском языке
(На материале финальных двучленных сочетаний) 18

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVICH
Teolingvistik g‘oyalarning onomasiologik tadqiqotlarda aks etishi 23

САМАНДАРОВ РУСТАМ ДЎСЁРОВИЧ
Синтактик деривация жараёни ва аппликатив модел 25

TURDIMURODOV SIROJIDDIN ESHQOBILOVICH
Xususiyat, hajm-o‘lchov va hid bildiruvchi
evfemik birliklarning lingvistik xususiyatlari 29

АЛИМАРДАНОВ ЭЛЁР ИЛХОМ ЎҒЛИ
Хоразм диалектал зонасидаги ўзбек ва туркман тиллари
контактларини ўрганишнинг назарий асослари 32

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
O‘zbek tilida lisoniy shaxsni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar 37

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar presuppozitsiyasi 41

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMRAQULOVNA
Zulfiya she’riyatida ayrim frazemalarning qo‘llanish xususiyatlari haqida 45

XUDAYBERGANOVA DILDORA KULMAMATOVNA
O‘zbek tilida zoonimlarning semantik-funksional tahlili
(Ogahiy asarlaridagi zoonimlar misolida) 49

М У Н Д А Р И Ж А

JO‘RAYEVA NASIBAXON G‘ANIYEVNA
Tarixiy asarlar leksikasida eskirgan so‘zlar tizimi 52

XAYDAROVA XURSHIDA
Takroriy taqlid so‘zlar klassifikatsiyasi
(Besh jildli o‘zbek tilining izohli lug‘ati asosida) 57

АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА ВАПАЕВА
Периоды формирования новейших
слов в узбекском и русском языках 61

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Адабиётшунослик терминларини ўзбекчалаштириш муаммолари 65

JABBOROV ESHNAZAR
Jahon ma’rifatchiligining sharqona tamoyillari 69

ҚУРОНОВ САЪДУЛЛО ДИЛМУРОДОВИЧ
Ўтиш даври романлари ва инсон концепцияси 71

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TARIXIY ASARLAR LEKSIKASIDA ESKIRGAN SO'ZLAR TIZIMI

Jo'rayeva Nasibaxon G'aniyevna,
Andijon davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Odatda, til tizimidagi tarixiy so'zlar lingvokulturologik til birliklarining alohida guruhi sifatida millatning muayyan davrga xos madaniy qadriyatlari, xalqqa xos etnik, ijtimoiy-madaniy qarashlar, an'ana, urf-odat va udumlar, kiyinish madaniyati, odob-axloq, muloqot odobi me'yorlarini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Tadqiqotimiz yo'nalishi o'zbek tarixiy diskursida tarixiy so'zlarning tilda aks etishi hamda ushbu birliklarning lingvistik o'ziga xosliklarini aniqlash, ta'riflash va tavsiflashga qaratiladi.

Dunyo tilshunosligida kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika yo'nalishlarida olamning lisoniy manzarasi tadqiqi keng tus oldi. Bunda til birliklarining etnomadaniy xususiyatlari, olam manzarasini toifalashning nazariy-metodologik tamoyillarini belgilash izchil va tizimli tadqiqotlar o'tkazishni talab etmoqda. Olam manzarasi tushunchasini turli rakurslarda tekshirish, uning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi ko'p qirrali kognitiv-stilistik imkoniyatlarining konseptual tizimini shakllantirishda lisoniy va nolisoniy omillarni aniqlash muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbek tilshunosligida olam lisoniy va konseptual manzarasida lisoniy birliklarning ilmiy-amaliy tadqiqini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Olamning milliy lisoniy manzarasi xalq tili, dini, an'ana va urf-odatlari, turmush tarzida shakllanib, san'ati va adabiyotida namoyon bo'ladi va milliy mentalitetga xos stereotip tushunchalarni aks ettiradi.

Bugungi kunda konsept tushunchasi kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning yetakchi mezonlaridan biri hisoblanadi. U yoki bu etnomadaniy jamoa tomonidan to'plangan tarixiy tajriba barcha sathlarga oid til birliklarida, xususan, semantik sathda ko'proq aks etadi. Olamning lisoniy manzarasini aks ettirish nuqtai nazaridan voqelikni konseptuallashtirishda umuminsoniy va etnomadaniy tushunchalarni ifodalovchi til birliklarining periferik imkoniyatlari tadqiq etiladi.

Konseptual tahlilning ko'plab usullari yetakchi leksema va uning leksikografik tasvirini izlash va tekshirishga asoslangan. Muayyan leksema tavsifida uning konseptual mazmuni va assotsiativ asosi ochib beriladi, ya'ni u qanday tushuncha va leksik-semantik qurshov doirasini ifodalashga xizmat qilishi oydinlashadi. Leksemalarning muayyan bir diskurs yoki kontekstda semantik-mazmuniy natija sifatida qanday qabul qilinishi lingvokulturologik xarakterdagi til birliklarining milliy-madaniy asoslariga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, L.V.Chadova konseptual tahlilning mohiyatini aniq va lo'nda ta'riflaydi: "Tildagi konseptning verballashuvi leksema ma'nolari, frazeologik birikmalar, erkin birikmalar, gap qoliplari, matnlar va matnlar majmui orqali sodir bo'ladi; ularning tahlili konsept mazmunini ochish imkonini beradi, leksema ma'nolari orqali hodisa haqidagi umume'tirof etilgan tasavvur yetkaziladi. Konseptning ichki shaklini aniqlash uchun uning etimologiyasiga murojaat qilinadi". [1]

Tahlil qilinayotgan konseptni ifodalovchi so'zning sinonimlari, uyadoshlari, ko'chma ma'nolari asosidagi assotsiativ tahlili ularning funksional-semantik xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Shu tariqa, konseptning tarkibiy qismi sifatida uning konseptual xususiyatlarini ifodalovchi til birliklari periferiyasi jamlanadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, "Muayyan madaniyatga mansub lingvomadaniy birliklarni kontekst yoki yaxlit diskurs tarkibida olib tahlil qilish tadqiq etilayotgan birlikning semantik ma'nosini yaxshiroq va ifodaliroq anglash imkonini beradi."[2] Shu ma'noda, tarixiy romanlar diskursining lisoniy-konseptual tadqiqi tasvirlanayotgan davr ruhi, turmush tarzi, milliy lisoniy manzarasi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish bilan birga, til birliklarini konseptual tizimlashtirish imkonini beradi.

Binobarin, Muhammad Alining romanlarida qo'llangan tarixiy so'zlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Aniq tarixiy shaxslarni nomlovchi antroponimlar. Ushbu atoqli otlar ishlatilishining o'ziyoq

[1] Чалова Л.В. Методика концептуального анализа// https://cyberleninka.ru

[2] Turaboyeva S. Olamning lisoniy manzarasida lingvokulturologik birliklarning voqelanishi.// Science and innovation: volume 1 issue 8 uif, 2022. – B. 1516-1522.

ifodada tarixiy bo‘yoqdorlikni ta’minlaydi. Muallifning tarixiy romanlarida *Amir Temur, Umarshayx Mirzo, Jahongir Mirzo, Amir Husayn, O‘rusxon, To‘xtamish-xon, Saroymulkxonim, Xonzodabegim* kabi o‘nlab real shaxslar nomlari keltirilgan. *Temur, Husayn, Muso, Xonzoda* kabi bir qator nomlar alohida olinganda oddiy bir ism sifatida talqin qilinsa, tarixiy mavzudagi asar matnida ular voqelik haqida tasavvur beruvchi tarixiy so‘z maqomida bo‘ladi.

2. Tarixiy shaxslarni tavsiflovchi turdosh otlar. Bunday leksemalar romanlardagi tarixiy so‘zlar sirasida salmoqli o‘rin tutadi. Muayyan qabilaga mansublikni bildiruvchi *dug‘lat, jaloyir, nayman, opardiy, barlos, neko‘z, arlot* kabi etnonimlar aksar hollarda atoqli otlar bilan birga keltirilgan: *Amir Dovud **dug‘lat**ning vazmin aytgan so‘zlari unga madad berganday bo‘ldi. (S.) Temurbekning do‘stlari – Amir Joku **barlos**, Amir Sayfiddin **neko‘z,** Abbos bahodir va Davlatshoh baxshilar bor-budlarini yig‘ishtirib bersalar ham ularga solingan tovonni qoplay olmaydilar. (S.)*

*Abbos **bahodir Axiy** Jabborni mardligi va tantiligi, fidoyiligi uchun yoqtirar, hurmat qilardi* (S.) jumlasidagi **axiy** javonmardlik tariqatining a’zosi ekanligiga ishoradir. Najmiddin Kubro asos solgan javonmardlik tariqatining so‘fiylari *axiy* deb atalgan.[1]

3. Mansab va unvon nomlari. Turli ijtimoiy mavqedagi shaxslarni, mansab, unvonlarni ifodalovchi tarixiy so‘zlar tasvirlanayotgan davr lisoniy manzarasini yaratishda uslub yaratuvchi faol vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ularni o‘z ichida bir nechta guruhlarga ajratish mumkin:

a) shaxslarning saroydagi yoki jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi bilan bog‘liq atamalar: sohibqiron, vaziri a’zam, podsho, xon, hoqon, amir, shahanshoh, dorug‘a, qo‘rg‘onbegi, kadxudo, qo‘rchi, o‘nboshi, yuzboshi, mingboshi, tumanboshi, arkoni davlat, to‘qsabo, shig‘ovul, tarxon, bakovulboshi, bek, beklarbegi, ulusbegi, qoziyul quzzot, ahdos, kalakchi, haram og‘asi, otabegi, eshik og‘asi (eshik og‘a), og‘aboshi, qo‘rchiboshi; oqa, xonim, xonzoda, mankuha, malak, bika, begim, bonuyi kubro, mahdi ulyo, Bilqisi sug‘ro, zavja, xosi haram: *U salom berib chodirga kirdi, kirdi-yu shohona chodir havosati, sohibqiron mahobati, jamuljam arkoni davlat salobati bosib, dovdirab, nima deyishini bilmay qoldi. (U.s.) Lashkarboshilar – Temurbek, Sher Bahrom, Shayx Muhammad, to‘qsabo, shig‘ovul va boshqa oliy mansabdorlar hukmdor bilan oraliqni bir xil saqlaganlaricha izma-iz otlarda kelishardi.* (S.) *Chap tomonda ichkaridagi o‘choqlar yonida turgan bakovulboshi unga salom bergan bo‘ldi.* (S.) *Darvozabon vaqt allamahal bo‘lganligini nazarda tutib, kirish uchun dorug‘adan ijozat olish borasida og‘iz ochgan edi, karvonboshi battarin ekan, baqirib tashladi.* (S.) *O‘zingizga ham qutlug‘ bo‘lg‘ay, ey bonuyi kubro hazrati oliyalari! (U.s.) Ko‘plar qatori Xonzoda xonimning dugonalari Iqbol bika, Siymin bika, Oqqiz, amirzodaning singillari Oq Begi xonim va Sulton Baxt begimlar ham cho‘kkalashib o‘z nasibalarini izlash bilan ovora edilar. (U.s.)* Mazkur guruhdagi tarixiy leksemalarning bir qismi amal, mansab, unvonni ifodalovchi nomlar bo‘lsa (*dorug‘a, qo‘rg‘onbegi, qo‘rchi, o‘nboshi, yuzboshi, to‘qsabo* kabi), bir qismi sub’ektiv baho ottenkasiga ega bo‘lgan tavsiflovchi so‘zlar (*sohibqiron, arkoni davlat, bonuyi kubro, mahdi ulyo* kabilar)dir.

b) iqtisodiy nochor hamda huquqsiz kishilar: g‘aribu g‘urabo, miskin, gado, chorakor, qarol, faqir, bozorchoponiy, tul-tug‘soq, tilanchi; joriya, ojiza, cho‘ri, kanizak, zaifa, asira: *Nechuk shamol uchirdikim, bizdek g‘aribu g‘urabolar sari qadam ranjida qildilar?* (S.) *Bolalagida Marg‘inonda bir boyning uyida qarollik qilib yurganida xuddi shunday nohaqdan kaltak egani esiga tushdi.* (U.s.) *Muhammad Mirakning o‘zi saxovat ko‘rgizib, bu yerda to‘plangan yetim-yesir, palid, turli bebosh bozorchoponiylarga jayba ulashdi, molu manol berdi, otu to‘nlar hadya qildi...(U.s) Endi ularni yot odamlar asiralarday olib ketishadi, endi Xorazm malikalarini olib borib cho‘ri qilib sotishadi.* (U.s.)

v) kasb-hunar egalari atamalari: juvozchi, sahhof, naddof, morboz, jarchi, mirza, chopar, tandachi, chitgar, rikobdor, rikobboshi, bovarchi, oriz, ohangar, sayis, baxshi (Kotib, mirzo, yozuvchi), malloh, bosqoqchi, g‘ajarchi, muxassil, dabir, paxsakash, xos tabib, tavochi (tavachi): *SHahardagi naddofning, kulolning ne aloqasi bor?..* (S.) *Voqeanavis, ting‘chi, qulovuzlar xabarlari bir-biriga mos kelmaydur... (U.s.) U nizomni buzib qo‘ydi, yuzimni yerga qaratdi, tandachilar olida uyalib qoldim... (U.s.) Bovarchilar, orizlar, qurolsozlar, kamonsozlar, ohangarlar, duradgorlar, yo‘lsozlar, karnaychilar, burg‘uchilar, xullas, urush degan hayot-mamot sahnasida zarur bo‘lgan hokazo kasb egalari ham bu safda bor edilar.(U.s.) Darvoza oldida sayis gijinglagan egarlog‘liq otning jilovidan ushlab turardi. (U.s.)*

g) harbiy kishilarga xos atamalar: sarkarda, sipoh, navkar, sarkor, cherik, jibachi, tiyrgar, tirandoz, kamonmergan, amirlashkar, xabargir, voqeanavis, ting‘chi, qulovuz, chuhra, xufiya, sipohsolor, oriz, sarkarda, navkar, mulozim, sipohiy, suvoriy, naftandoz, ra’dandoz: *Ularga azaldan faqat amirlashkarlik, sipohsolorlik meros qilib berilgan, Chingizxon avlodiga xizmat qilishdan nariga o‘tmasliklari shart. (U.s.) U tumanboshi Amir Joku barlosga: “Naftandozu ra’dandozlar ishga tushsun!” deb chopar yubordi. (U.s.) Janobi oliylari hamisha hushyor va ehtiyotkor bo‘lsunlar, toki vaziru lashkarboshilar, mansabdorlar,*

[1] Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr - O‘zbekiston, 2009. – B. 105.

korchalonlar, sipohsolorlardan hech biri o‘z martabalari chegarasidan chiqmasunlar va doimo farmoningizga ilhaq bo‘lib tursunlar...(U.s.)

d) ilm egalariga oid atamalar: shayxurrais, umaro, fuzalo, munajjim, ustod, muarrix, mudarris, mullavachcha: *...Shahrisabzlik munajjim Yahyo Hasan barlosning o‘g‘li Nodirbek ibn Yahyo Mavlonozodaning xushbichimgina mushti ham bor edi...* (S.) *Yana bir toifa – muhaddislar, payg‘ambar va uning avlodlari haqida naqlu rivoyatlar keltirguvchi muarrixlar hamda qissaxonu roviylardan tashkil bo‘lg‘ay.* (U.s.) *Oyoq ostida o‘ralashib yurgan bolakaylardan tortib madrasaning tolibi ilmlari-yu sipo mudarrislarigacha, barcha-barcha bayramdagidek yasanib olishgan... (U.s.)*

e) saroy xodimlari atamalari: a’yon, zindonbon, atka, miroxur, shahna, xonsolor, shukrchi, yasovul: *Zindonbon uni Samarqand hokimi o‘g‘li bilan birga deb xayol qildi shekilli, indamadi.* (S.) *Saroy a’yonlariga xos bo‘lgan shirin mulozimatu muomalalar, seriltifotlilik, so‘zlashuvlardagi dabdababozligu quruq hasham uning g‘ashini keltira boshladi.* (S.) *Atkasining aytishicha, amirzoda juda chaqqonu chapdast emish. (U.s.) Shu payt xonsolor taom fursati yetganligini bildirib dasturxon yozishga ijozat so‘radi. (U.s.) Yonida shukrchi katta soyabonni soya qilib kelardi. (U.s.) Ko‘ksaroy sayisxonasi miroxuri bir kuni humoyun o‘rduga kelib: “Amir sohibqironga so‘zi bor”ligini aytib, kirishga ijozat so‘radi. (U.s.)*

j) ijtimoiy oqim, guruhga mansub kishilar nomlari: sarbador, qalandar, darvesh, jeta (qaroqchi)*: Amir sohibqiron, o‘zingiz ham balki uni eslarsiz,.. Samarqand sarbadorlaridan, Tun saltanati fuqarosi.(U.s.) Goh-gohida “shay’anillo”ni aytib ridoiy muhammadiyga burkangan, boshiga kulohi ahmadiy kiygan, yelkasiga kashkul ilgan, bellariga anvoyi lattalar bog‘lashib olgan qalandarlar ham jo‘shu xurush ila kelib qolardilar.(U.s.) Jeta jetaligini qilur, hamon tinchlik bermas.(U.s.)*

4. O‘rin-joy nomlari (toponimlar). Tarixiy asarlarda, muayyan davrni ifodalovchi asosiy vositalardan biri, bu – toponimlardir. Ma’lum bir davrlar o‘tishi, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muhitning o‘zgarishi bilan bog‘liq holda toponimlar, gidronimlar, godonimlar va boshqa makon nomlari o‘zgaruvchan xarakterga egadir. Shuning uchun tarixiy asardagi voqelik kechayotgan joylarning nomlarini to‘g‘ri belgilash asar haqqoniyligini ta’minlashda muhim ahamiyatga egadir. Bu esa ijodkordan katta mahorat va qunt talab qiladi. Yozuvchi Muhammad Alining yutug‘i shundaki, bu masalaga o‘ta sinchkovlik bilan yondashib, har bir nomning o‘rinli va xatosiz qo‘llanishiga jiddiy e’tibor beradi. Adibning tarixiy romanlaridagi joy nomlarini quyidagi guruhlarda kuzatish mumkin:

a) mamlakatlar nomlari: Chin, Basra, G‘arnota, Farang, Bulg‘or, Burtos, Movarounnahr. *Bu yog‘i na Chindayu Shomda, na Basrayu Yamanda, na Misru Adanda, na G‘arnotayu Bulg‘oru Farangda bordur ushmundoq bozor!* (S.)

b) shaharlar nomlari: Qo‘stantiya, Usrushona, Gurganj, Dimishq, Daragez, Derzab, Andxoy, Dizaq, Xevaq, Shibirg‘on, Omul, Xuttalon, Darband, Movarouqofqaz, Saroychiq, Saroy-berka, Hojitarxon, Qubo, Marg‘inon, Mozandaron, Otboshi, Barakai G‘uriyon, Boytog‘, Jeta, Juzjon, Kot, Yangkent, Hisori shodmon, O‘tror, Sabron. *Xo‘jandga yo‘lim tushdi, undan Usrushonaga yo‘l oldim...* (S.) *Shahriyor qo‘rg‘on qilmak ishiga mutasaddilikni Nasafiyga berishini taklif qildi, chunki u mohir muhandisdir, ota-bobolari Xorazmshohlar poytaxti Gurganj shahrini tiklashda qatnashgan. – Qo‘stantiyada eski sinashta cho‘pqotlarim bor, – dedi Karaklis salomlashgandan so‘ng.* (S.)

v) mamlakat yoki shaharning ma’lum qismi ma’nosidagi nomlar: o‘rdu, o‘rdugoh, qasaba, muzofot, kent, domon, dog‘goh, ulus (hudud ma’nosida), tumonot, xazorijot. *Yo rab, har qasabayu deparada albatta bir benomus saltanat iqboli ishqida kuyib yonadi.* (S.) *Umid ulkim, Samarqand saltanatimizning eng mustahkam o‘rdugohlaridan biriga aylangusidir.* (S.) *Samarqand muzofoti ushbu zotga iqia’ qilib beriladur.* (S.)

g) saroy hayoti bilan bog‘liq o‘rin-joy atamalari: saroparda, borgoh, ko‘rinishxona, shabiston, haram, ko‘shk, yonchiq, humoyun o‘rdu, shohchodir, xazinai omira, qo‘rxona, sarkorlik, xazira. *Qurultoy Solisaroydan chetroqda, asov Amudaryo bo‘yida, Amir Husayn saroparda si o‘rnatilgan yam-yashil o‘tloqda bo‘lib o‘tmoqda edi.* (S.) *Xudobanda gulzor orasidan o‘tib, baland ko‘shkning chap tomonidagi bir oshyonli kunbetkay binoga kirib ketdi.* (S.) *Humoyun o‘rdudan to Hinduvongacha jang maydoni kaftdagidek ko‘rinib turardi. (U.s.) Koriz, buloq, daryo va soylar suvi bilan sug‘oriladigan yerlarni hisobdan o‘tkazsunlar va unday yerlardan olingan hosildan ikki hissasini raiyatga, qolgan bir hissasini oliy sarkorlik uchun ajratsunlar...* (U.s.).

d) maishiy xizmat xonalari: *arusxona, yonchig‘. Ular o‘sha hokimu amirlarning yonchig‘ini obod etg‘on.* (S.) *Juda ham orasta va pokiza podsho hammomida arusxonada Xonzoda xonim, Iqbol bika, Siymin bika, Oqqizdan boshqa hech kim yo‘q edi. (U.s.)*

e) harbiy o‘rin-joy atamalari: jibaxona, pusug‘, shinak, lashkargoh, kamin, mo‘rchil. *Mavlonozoda kamonini olib dushmandan birini – tolibi ilm nazarida o‘sha askarlarga buyruq berib turibdi, boshiga bo‘rk qo‘ndirgan, sovutga o‘ralgan otliq badjahl mo‘g‘ul lashkarboshi bo‘lsa kerak – shinakdan turib nishonga oldi.* (S.) *U, qochib ketdi, deb yolg‘on ovoza tarqatibdi, aslida ketmay, to‘rt ming askar bilan kaminda pusib yotgan ekan... (U.s.) Har bir bahodir qo‘shini*

bilan o‘z jirg‘asida, mo‘rchili yonida jam bo‘ldi. (U.s.) Ehtiyot chorasi sifatida pusug‘da qo‘shin ham qo‘yib qo‘ydi. (U.s.)

yo) saqlash joylari. Bundan:

1) suv saqlanadigan joy nomlari: sardoba, koriz. *...Olamni qo‘ng‘iroq deb bilsak, inson o‘sha qo‘ng‘iroqqa sas berguvchi tildir, agar inson bo‘lmasa, qo‘ng‘iroq sas berolmaydur, olam bamisli ko‘zi berkilg‘on quduqqa o‘xshab qoladur... Va yo suvi qurig‘on sardobaning o‘zi bo‘ladur!..* (S.) *Kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yoki xarob bo‘lib yotgan yerni chamanga aylantirsa, birinchi yili undan hech qanday soliq olinmasun...* (U.s.)

2) hayvonlar saqlanadigan joy nomlari: sayisxona, tabla. *G‘ordan yuz qadamcha narida qachonlardir qurilgan sayisxona o‘rnida Temurbek toshlardan bir necha xonali imorat bino qildirdi.* (S.)

3) qurol-yarog‘ saqlanadigan joy (ombor) nomlari: zarrodxona, jibaxona. *Jibaxonasida o‘zi uchun har kuni besh yuz jiba yarog‘ mukammal turar emish...* (S.) *Qadimdan Hisor zarrodxonasi mashhur edi.* (U.s.)

4) mahbuslar saqlanadigan joy nomlari: zindon. *Agar chiqmasang, urug‘-aymog‘ing bilan zindon qilamen, tanang yerlarda chiriydi!..* (S.)

5. Narsa-buyumlarga oid atamalar:

a) yoritish asboblari nomlari: toshchiroq, yog‘chiroq. *Ko‘cha kichkina, tor bo‘lib, unga fonus qo‘yilmagan, biron toshchiroq ham yo‘q...* (S.) *Abu Bakr Kalaviy esa noxush bir narsani sezganday ko‘ngli uvishib, tokchada lip-lip yonib turgan yog‘chiroqqa holsiz tikildi.* (S.)

b) oshxona buyumlari nomlari: dekcha, chapiya, ayoq, chilcho‘p, kosai chubin, tabaq. *Ko‘chadan o‘tib qolsangiz, kapkirlarning cho‘yan qozonga urilganiyu mis tovoqlarda holvani chilcho‘plar bilan qorilayotgani qulog‘ingizga chalinadi. Shu payt etikdo‘z yigit bir chapiyada ayron olib keldi.* (S.) *Qovunni oltun tabaqqa solib qudamizga ham yuborilsun! (U.s.)*

v) dam olish jihozlari nomlari: chahorbolish. *Hukmdor saroparda oldida zarrin chahorbolishli taxtda savlat to‘kib o‘ltirardi.* (S.)

g) transport vositalari: maofa. *Xonliq oqa maofadan bosh chiqarmay otni etaklagan quldan sekingina so‘radi.* (S.) *Jahongir Mirzoni ehtiyotlik bilan maofaga soldilar.* (U.s.)

d) yozuv qurollari nomlari: juzvdon, dovot. *Tolibi ilmlar juzvdonini osib olgancha do‘sti Xudobanda shitob kirib kelmoqda edi.* (S.) *Mavlono Ubayd xos munshiy sifatida hamisha sohibqiron yonida bo‘lar, juzvdonida har xil risolalar, daftarlar, dovotu qalam va oliy navli sulton qog‘ozidan olib yurardi.* (U.s.)

e) imoratsozlik bilan bog‘liq nomlar: tarx, koshin, islimiy girih. *Tarxi xochsimon shaklga ega qasrning xonalari zarhal va zangori rangli koshinlar, turfa xil naqshlar bilan bezatilgan bo‘lib yaraqlab turar, oyoq ostlari olti qirrali rangin g‘ishtlar bilan qoplangandi.* (U.s.) *Sattor shihna holi paytlarda darvozaning chiroyli naqshlarini, islimiy girihlarini tomosha qilishni yoqtirardi. (U.s.)*

j) chodir jihozlari nomlari: changg‘aroq. *U chodir changg‘arog‘iga tikildi.* (U.s.)

6. Harbiy tushunchalar bilan bog‘liq so‘zlar.

a) harbiy jarayon va harakatlar bilan bog‘liq nomlar: muhoriba, chopqun, savash, yasoq, yasol, nakomishiy qilmoq, yosomishiy qilmoq, savq-ul jaysh, ta’biyat-ul jaysh, g‘ul. *Hech kim uning ortidan nakomishiy qilib ham bormadi. (U.s) Sohibqiron shikorni yoqtirardi, ammo asosiy maqsad, quyonu ilvasinu kiyik otish emas, balki kelgusi janglar rusumini aniqlash, mashqini olish, “savq-ul jaysh” va “ta’biyat-ul jaysh” yo‘llarini nazardan o‘tkazishdan iborat bo‘lardi. (U.s.) Amirzodaning yosomishiy qilib saflangan shavkatli Qo‘rqmas va qattiqqo‘l... Temurbekning Amir Husayndan bir narsada ustunligi aniqdir: u jang yo‘rig‘ini biladir, yasoq tuzishga mohir, jang maydonini bir qarashda chamalay oladir... (U.s.)*

b) harbiy qism nomlari: barong‘or, javong‘or, bo‘luk, chanoh, soqa, hirovul, chopovul, shoqovul, g‘o‘l, qalb, qo‘l, ilg‘or, favj, qanbul, maymana, maysara, chag‘dovul, jirg‘a, manglay (mangloy). *Koshki ul, lashkarni yig‘ib, barong‘oru javong‘orni, qalbni mustahkamlab, chanoh bilan soqani faromush etmay ma’rakai maydonga kirsa, yog‘iyning dodini bersa!* (S.)

v) harbiy mutaxassislik nomlari: kamongar, shamshirgar, tirkishdo‘z, tiyrgar, suvoriy, xos lashkar, lashkar, qalovuz. *Kamongar, shamshirgar, tirkishdo‘z, tiyrgarlar, hokim safarga otlandi deguncha, devonga aslahalar etkazib berishg‘on, ammo haqini xazinadan emas, viloyatdan tushgan soliqlardan olishg‘on*. (U.s.)

g) harbiy kiyimlar nomlari: zirx, dubulg‘a, sovut, javshan, jiba. *To‘pbuzar sipohlar, lashkarsindirar askarlar atrofni tutib ketgan, javshan kiygan pahlavonlar ushlab olgan nayzalarning yaraqlashi ko‘zni olardi*. (S.)

d) harbiy qurol-aslaha nomlari: sadoq, tarkash, jela, darra, jiba, dovul, burg‘u, to‘ra, govsipar, manqal, bo‘kda, tabl, nafir, tig‘i parron (majoziy ma’noda). *Navkarlar qo‘liga kishan solingan, uchovining bo‘yinlariga bitta jela tashlangan, abgor bo‘lgan Iskandar o‘g‘lon, amir Hamid va amir Yusufxo‘jalarni haydab dor tagiga olib bordilar*. (S.)

Yuqoridagilardan tashqari harbiy o‘rin-joy nomlari ham keltirilgan bo‘lib, mazkur atamalar o‘rin-joy nomlari (toponimlar) tarkibida ko‘rsatib o‘tildi.

7. Kiyim-kechakka oid so‘z va atamalar.

a) bosh kiyim nomlari: kuloh, taqiya, kulta-po‘shak, qasava, takana, taylason, qamchot bo‘rk,

cho‘girma, kuloh (kulohi ahmadiy). *Katta ayollarday boshiga solgan takanasi o‘ziga yarashgan. Og‘zini yashirib turgan ro‘moli odmigina matodan bo‘lsa ham, ko‘zga nafis tashlanardi. (S,) O‘ttiz beshlarga borgan, qorin qo‘ygan bu odam boyvachchalardan ekanligi kiyimidan ko‘rinib turar, tez yugurganidan halloslab, boshidagi taylasoni echilar darajaga kelgandi. (S,)*

b) oyoq kiyim nomlari: sarmuza (kavushning bir xili), saxtiyon (charm, ko‘n). *Aslida sipohiylar, amirlar, mingboshi, yuzboshi, o‘nboshilar devonxonaga, bazm majlislarga quloqchinsiz, etiksiz, sarmuzasiz, bo‘rk yoqa chakmonsiz kirishlari mmkin emas.* (U.s.) *SHahriyorning ko‘zi beixtiyor musofirning oyog‘iga tushdi – oyog‘ida kamyob saxtiyon etik...* (S.)

v) ayollar kiyimlari nomlari: qabo, iksun qabo, ma’daniy qabo, malikiy, miqroziy, quddusiy qabo, debo, debocha, to‘rqa. *Sohibqiron deboni, agar ichida debocha kiyilgan bo‘lsa, juda yaxshi ko‘rardi...* (U.s.) *Atlasdan tikilgan iksun qabo, ma’daniy malikiy, miqroziy qabolari anchagina...* (U.s.)

g) erkaklar kiyimlari nomlari: qantara, hirqa, janda, pashmina, xil’at, xossa xil’at, tanpo‘sh, yorg‘oq, surra to‘n, tunbon. *Bir payt darvoza ochilib, egniga tunbon kiygan bir norg‘ul yigit ko‘rindi, u bolaga qo‘li bilan “ket!” ishorasini qildi. (S.) Birovi – Amir Muayyad arlot ekan, - pashminaga o‘ralibdi, Tamuqa qavchinda qunduzi po‘stin, Zindachashm opardiyda tanpo‘sh, ana unisida – Abbos bahodir ekan, - yorg‘oq deb ataladigan echki terisidan qilingan engsiz kiyim, Bahrom jaloyirda surra to‘n.* (U.s.)

d) maxsus kiyimlar nomlari: rido (ridoi muhammadiy) – diniy kiyim, dastor, mandil. *SHayx tasbehini otibdi, dastorini chuvalatib. Ojiza yo‘liga yozibdirki, ul zorim o‘tarmukin deb... (S.) Goh-gohida “shay’anillo”ni aytib ridoi muhammadiyga burkangan, boshiga kulohi ahmadiy kiygan... qalandarlar... kelib qolardilar.* (U.s.) *Ko‘ngli yumshab, mandilini Tug‘luqxo‘ja boshiga qo‘ydi, nozik ishlamali, oltin bilan ziynatlangan kamarini amir Sayfuddinning beliga bog‘ladi. (S.)*

e) kiyim bezaklari nomlari: qurchuq, baxya, o‘tog‘a. *Odatdagi darveshlar qalpog‘iga bog‘lanadigan kigiz tasma – uni qurchuq deyishadi – ham ko‘zga tashlanardi. (S) Boshlarida esa ming baxyali shaftoli gulli taqiya... (U.s.)*

8. Oy va kun nomlarini bildiruvchi atamalar: shavvol, rabbiul oxir, javzo, qantar, jadiy, dalv, xut, hamal, savr, rabbius soniy. Bunda voqelik tasvirlanayotgan davr nuqtai nazaridan islomiy madaniy kodlar asosida qamariy oy nomlaridan foydalanilganligi tarixiylik nuqtai nazaridan juda o‘rinlidir. *Ilmi nujumda ham shunday fol bor: jadiy oyining o‘n birinchi kechasi, dalv oyining to‘qqizinchi kechasi, xutning yettinchi, hamalning beshinchi, savrning uchinchi, javzoning birinchi kechalari Yetti Qaroqchi yulduzi oy bilan bab-baravar botar ekan... (U.s.) Samarqand. Tarix 765 hijriy. Shavvol oyi 20-kuni, payshanbai najotbaxsh. (S.) Shohruh Mirzo hijriy 779 yil rabbius-soniyning o‘n to‘rtida dunyoga kelmishdir!..* (U.s.)

9. Pul birligiga oid atamalar: kepaki (kepakiy), aqcha, naqdina, jayba, ukalko. *Mir Sayyid Baraka qiroat bilan qur’on tushirdi, sohibqiron yetim-yesir, beva-bechoralarga o‘n ming kepakiy oltin xayru sadaqalar ulashdi.* (U.s.) *Unga zafarnishon lashkar, askarlarga tag‘or va ukalko, otlarga ulufa ajratilgay!* (U.s.)

10. Soliq tizimiga oid atamalar: o‘lpon, zakot, xiroj, juz’ya, yarmoq, suyurg‘ol, moli omon. *Avom-ku avom ekan, hatto o‘zi kabi mansabdor bir odamning ham hech kosasi oqarmagani, yaxshilarning xor-zor bo‘lgani, zakotu xirojning bemaza qovun urug‘iday urchib ketgani, nohaqdan yiliga necha martalab o‘lpon yig‘ilishini aytib o‘tdi. (S.) Andxoy piri murshid Mir Sayyid Barakaga humoyun o‘rdudan suyurg‘ol qilib berilgandi.* (U.s.)

12. Yozuv nomlari: ko‘fiy, suls. *Faqat ko‘fiy emas, suls yozuvlari ham ishlatiladi, turli ranglar uyg‘unlashib, jilvalar ichra inja yohdular taratib turadi...* (U.s.)

13. Ish qog‘ozlari va hujjatlar nomlari: muchalko, aqd. *Un maxsus muchalko orqali berilsun!... (*U.s.*) Jahongir Mirzo bilan Xonzoda xonimlar to‘yi qutlug‘ to‘ydir, Vatan, ulus birligiga asos bo‘lguvchi, muhrlovchi aqdi nikohdir, saltanat hujjatidur!...* (U.s.)

Umuman olganda, tarixiy asarlarda milliy koloritni va voqelik kechayotgan davr ruhini berishda tarixiy so‘z va atamalarning o‘rni va ahamiyati yetakchi mavqega egadir. Ularning katta qismi istorizm sifatida umumiste’moldan chetlashgan bo‘lsa-da, ayrimlarining, arxaizm o‘laroq, bugungi kunda muqobil variantlari qo‘llanilmoqda.

Resume: In this article, from the point of view of scientific and practical research of linguistic units in the linguistic and conceptual view of the world, the role and importance of obsolete words in the historical works of the writer Muhammad Ali is studied, and their lexical-semantic group is formed.

Резюме: В данной статье с точки зрения научно-практического исследования языковых единиц в лингвоконцептуальной картине мира изучается роль и значение устаревших слов в исторических произведениях писателя Мухаммеда Али, а также их формируется лексико-семантическая группа.